UO‘K 821.518.133

CHO‘LPON SHE’RLARINI ANGLASHDA IJTIMOIY-TARIXIY KONTEKSTNING AHAMIYATI HAQIDA

D.H. Quronov

Jadid adabiyotidan boshlanuvchi yangi o‘zbek adabiyotining muhim xususiyati ijtimoiylashuvdir. Shu davrdan she’rda tashqi olamni idrok etishga, uning ta’sirida paydo bo‘lgan his-kechinmalarni aks ettirishga ko‘proq ahamiyat berila boshlandi. Matbuotning rivojlanishi barobari publitsistik she’rlar va she’riy publitsistika namunalari yaratila boshladi. Ularni tushunish yaratilishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy voqelikdan xabardorlikni taqozo etadi. Hozirgi o‘quvchi uchun esa ijtimoiy-tarixiy sharh hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-tarixiy voqelik, sharh, Turkiya-Yunoniston urushi, turk istiqlolchilari, Anato‘li, Lozanna (Lo‘zon).*

Важной особенностью новой узбекской литературы, которая началась с литературы джадидов, является социализация. С этого времени писатели начали обращать доминирующее внимание познанию внешнего мира, отражению чувств, возникших под его влиянием. По мере развития печати стали появляться публицистические стихи пафосом, а также публицистика в стихах. Для верного понимания таких стихотворений нужно знать породившую их социальную действительность, что делает необходимым подробный социально-исторический комментарий к ним для современного читателя.

Ключевые слова: *социально-историческая действительность, комментарий, Турецко-Греческая война, турецкие борцы за независимость, Анатолия, Лозанна*.

Cho‘lpon she’rlari orasida kunning dolzarb ijtimoiy-siyosiy voqeligiga bag‘ishlab yozilgan qator she’rlar borki, ularning mazmun-mohiyatini anglamoq uchun davr ijtimoiy-tarixiy kontekstidan xabardorlik shart qilinadi. Jurnalistik faoliyat bilan shug‘ullangan Cho‘lpon merosida *publitsistik ruhdagi lirik asarlar ham, she’riy yo‘lda yozilgan publitsistik asarlar* ham bor. Ular orasidagi farqni yaxshi bilgani uchun ham shoir hayotligida chop qilingan to‘plamlarga ikkinchi nav she’rlar deyarli kiritilgan emas. Bu esa, albatta, eng avval Cho‘lponning she’riyatga yuksak talab qo‘yganligidan deb izohlanishi mumkin. Albatta, bu o‘rinda “Agar shunaqa ekan, nima uchun Cho‘lpon har ikki nav asarlarga ham qo‘l urdi?” degan e’tiroz qilinishi mumkin. Gap shundaki, Cho‘lpon ijod maydoniga kirgan va faol qalam surgan vaqtlarda publitsistikaning ham, adabiy asardagi publitsistik ruhning ham qimmati g‘oyat baland, unga ehtiyoj kuchli edi. Chinakam ijodkor esa, iste’dodining quvvati, tasavvur va tahayyur imkoniyatlari nechog‘li ulkan bo‘lmasin, o‘zi mansub jamiyatdan, davrining ijtimoiy-estetik ehtiyojlaridan, dardu quvonchidan ayro bo‘la olmaydi.

Yaxshi ma’lumki, *publitsistik asar* nechog‘li dolzarb masalalardan bahs etgan va o‘quvchilar orasida nechog‘li mashhur bo‘lmasin, ayni dolzarblikni keltirib chiqargan ijtimoiy-tarixiy omillar o‘zgarishi barobari u ham qimmatini yo‘qotadi – eskiradi. Aksincha, *haqiqiy badiiy asar* katta vaqt o‘lchamida yashaydi: u davrlar osha, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning o‘zgarishidan qat’i nazar, o‘z potensialidagi yangi-yangi mazmun qirralarini namoyon etaveradi. Bu jihatdan qaralsa*, publitsistik ruh bilan yo‘g‘rilgan she’rlar* oraliq mavqeni egallaydi – ular badiiy-estetik qimmatini saqlagani holda, o‘zlari yaratilgan davrning ijtimoiy-tarixiy voqeligi bilan aloqasini butkul yo‘qotmaydi. Ya’ni bu nav she’rlarning anglanishida ular yaratilgan davr ijtimoiy-tarixiy kontekstini bilish muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Agarda she’r davr kontekstiga umumiy tarzda bog‘langan bo‘lsa, o‘quvchida davr va uning ruh-kayfiyati haqida umumiy

tasavvur bo‘lishi she’rni anglash uchun kifoya qiladi. Masalan, Cho‘lponning “Buzilgan o‘lkaga” she’rini anglash uchun Farg‘ona vodiysidagi 1917–1921-yillardagi ahvol: qonli urushlar, dahshatli ocharchilik oqibatida xonavayron bo‘lgan yurt haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish kifoya. Shuning o‘zi shoirning iztirobli his-kechinmalarini ko‘ngildan o‘tkazish, alamli o‘ylarini mushohada qilish uchun yetarli. Biroq, agar she’r konkret tarixiy voqealar, muayyan ijtimoiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lsa, ijtimoiy-tarixiy kontekstni bilmasdan she’rning adekvat tushunilishi amri maholdir.

Shunday she’rlardan biri “Buloqlar” to‘plamidan joy olgan “Yong‘in” nomli she’rdir. She’rning sarlavhasi ostida “Talanmag‘on, yiqilmag‘on yer yo‘q: Go‘daklar nayza uchida... (Xabar)” degan epigraf berilgan. Agar epigraf manbasi “xabar” deb ko‘rsatilgani va buning “gazeta xabari” ekani ko‘proq haqiqatga yaqinligini e’tiborga olsak, she’r publitsistika qoidasiga to‘la muvofiq, ya’ni hodisa sodir bo‘lishi bilan unga tezkor munosabat sifatida yozilgani anglashiladi. Biroq yozilgan vaqti qayd etilmagani sababli ham o‘quvchi konkret voqeani bila olmaydi. Shunga qaramay, ilk misralarni o‘qishni boshlaboq shoirning his-kechinmalariga turtki bergan narsa nima ekanligini anglay boshlaydi:

Nega mening qulog‘imda tun va kun
Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?
Nega menim borlig‘img‘a har o‘yun
Va har kulgi og‘u separ, o‘t qo‘yar?
Ko‘nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar,
Boyqushlarga buzuq ko‘ksin ochganmi?
Ota-ona, tanish-bilish, o‘rtoqlar
Yurtni tashlab, tog‘ va toshga qochqanmi?
[5. B. 10]

Yurtdagi buzg‘unchilik urushi oqibatlari shoir yuragini ezadi, shuning uchun ham she’rda “Buzilgan o‘lka” bilan hamohang misralarga duch kelamiz. Bunga she’r “Buzilgan o‘lkaga” she’ri bilan bir vaqtda yozilgani e’tiborga olinsa, ular mavzu jihatidan ham bir xil, bunda ham yurtimizdagi buzg‘unchilik urushi oqibatlaridan zada shoir iztiroblari ifoda etilgan deyish mumkin. Biroq she’rning yakunida alohida band sifatida ajratilgan ikki misra – yakun bunga imkon bermaydi:

Keng yaylovga o‘tmi ketdi, yondimi?
“Madaniyat” istagiga qondimi? [5. B. 11]

Shoir qo‘shtirnoqqa olish bilan “madaniyat” so‘zining muhimligi va uning alohida mazmunda qo‘llanganini ta’kidlaydi. Bu o‘rinda “madaniyat” deganida o‘zini “madaniyatli dunyo” sanovchi Yevropa nazarda tutiladi. Shuncha xunrezlig-u vayronagarchiliklar haqida aytib kelgach, “Madaniyat” istagiga qondimi?” deya xitob etilgani shoir Yevropani bu ishlarning sababchisi deb anglayotganiga dalolat qiladi, shu ma’noda so‘nggi misra g‘oyat keskin ayblov-kesatiqdir. Agar shoir Yevropani aybdor sanayotgan ekan, demak, har qancha o‘xshash bo‘lgani bilan bu she’r mavzu e’tibori bilan “Buzilgan o‘lkaga”dan farqlanadi. Xo‘sh, “Yong‘in” she’ri nima haqda? Unda gap qachongi va qayerdagi qirg‘inlar, xunrezliklar haqida bormoqda?

“Buloqlar” to‘plamida she’rning yozilgan vaqti qayd etilmaganini yuqorida aytdik. Shunday bo‘lsa-da, to‘plamning tarkiblanishi diqqat qilgan kishiga taxminiy vaqtni belgilash imkonini beradigandek. Avvalo, to‘plamga “Yong‘in” she’ri uchinchi bo‘lib, “Buzilgan o‘lkaga” va “Amalning o‘limi” she’rlaridan keyin kiritilgan. Uning ortidan esa Turkiya voqealariga bag‘ishlangan mashhur “To‘fon” she’ri joy olgan bo‘lib, ilgariroq gazetada e’lon qilinganida, uning 1922-yil sentyabrida yozilgani qayd etilgan [6]. Agar turk qo‘shinlari 1922-yil 9-sentyabrda Izmirni ozod qilgani, 18-sentyabrga kelib esa grek bosqinchilari Onado‘lidan butunlay quvib chiqarilgani e’tiborga olinsa, “To‘fon” she’rini dunyoga keltirgan ijtimoiy-tarixiy omil ayon bo‘ladi. Asli, she’rning gazetada “Onado‘li qishloqisining g‘olib o‘rdulariga” degan bag‘ishlov bilan bosilgani – shunga ishora. Faqat shunisi borki, she’r yozilgan davrda dunyo ahvolidan xabardorki odamga ma’lum tarixiy voqelik hozir izohga muhtoj.

“Yong‘in”da xunrezlik va vayronagarchilik uchun Yevropa ayblanayotgani bu she’rning ham Turkiya-Yunoniston urushi mavzusida yozilganiga dalolat qiladi. 1918-yil 30-oktyabrdagi Mudros sulhi bilan Turkiyaning I jahon urushidagi mag‘lubiyatini rasmiylashtirgach, g‘olib davlatlar Usmoniylar imperiyasining ulkan hududini bo‘lib olishga kirishdi. Ular strategik jihatdan juda muhim bo‘g‘ozlar hududini, Sharqiy Frakiyani, Onado‘lining kattagina qismini egallab, poytaxt Istanbulni ham nazoratga oldilar.

Cho‘lponning kesatig‘i “madaniy dunyo”ning tutumiga qaratilgan. Qarangki, og‘iz to‘ldirib “madaniyat”, “demokratiya”, “huquqiylik” deganlaricha bor-da ularning: Turkiyaning asoratga solinishini sulton hukumati bilan kelishuv asosida go‘yo “qonuniylashtirib” qo‘yish payida bo‘lgan ular. Buning ustiga “madaniyat” oppoq qo‘lqoplari kirlanib qolishini istamaganidan o‘zgalar qo‘li bilan ish bitirishga o‘rgangan: Turkiya bilan ilgaridan o‘zaro hududiy da’vo-ziddiyatlari mavjud Yunoniston urushga jalb qilinadi. Cho‘lpon bir maqolasida Yunonistonning urushdagi roliga mana bu tarzda topib ta’rif bergan: “Yunon hech vaqtda bekarga hovlag‘an it emas. Orqasida olkishlaguvchi bo‘lmasa, ul hech kimga yugurgan emas” [10]. O‘sha olkishlaguvchi kuchga ishongan Yunoniston qo‘shinlari Izmirga kirgan 1919-yilning 15-mayida boshlangan qirg‘in to urush oxiriga qadar to‘xtamadi – minglab qishloqlar vayron, yuz minglab “qishloqi”lar xonavayron, ming-minglab begunoh kishilar qurbon bo‘ldi... To‘g‘ri, bu voqealarni turklar bir turli, g‘arbdagilar yana bir turli, ruslar tag‘in bir turli talqin qiladilar. Cho‘lpon bu mudhish voqealar haqida ma’lumotni ularning qay biridan olgani bizga hozircha qorong‘u, lekin gumanist ijodkor sifatida ich-ichidan o‘tkazgani, qalbi iztirobga to‘lgani-yu “madaniyat”ga nafrati yanada jo‘sh urgani shubhasizki, mana bu misralar ayni kechinmalardan oziqlangan:

Tabiatning butun yomon tomoni
Shu o‘lkaga faqat jilva qildimi?
Mo‘minlarning oq vijdoni, imoni
Sham so‘nganday tinsizgina so‘ndimi?
Qilichlarning tillarida qizil qon,
Buloqlarning suvi yanglig‘ toshdimi?
Yalang bola, yalang go‘dak – ma’sum jon
Nayzalarning boshlaridan oshdimi? [5.B. 11]

Ko‘rib turganimizdek, keltirilgan parchada epigrafda qayd etilgan fakt – “nayza uchidagi go‘daklar” yana bir karra takrorlanmoqda. To‘g‘ri, urush davomida dahshatli xunrezliklar bo‘lgani, jumladan, nayza (bu o‘rinda miltiq uchidagi nayza nazarda tutiladi) sanchib, bo‘lib ham bir necha bor sanchib o‘ldirilgan oddiy kishilar haqida ma’lumotlar uchraydi. Biroq hozircha Cho‘lpon aynan qaysi gazetadagi berilgan xabarda mazkur faktga duch kelgani haqida ma’lumotga ega emasmiz. Tabiiyki, Cho‘lpon bu ma’lumotni nafaqat o‘zbek, balki turk va rus tilidagi gazetalarda ko‘rgan bo‘lishi mumkin. Agar shu xabar topilsa, she’rning yozilgan vaqtini aniq belgilash mumkin bo‘ladi.

Shu o‘rinda masalaning boshqa muhim bir tomoniga ham to‘xtalib o‘tish zarur. Gap shundaki, “Yong‘in” she’rida tasvirlangan manzaralar va holatlar fuqarolar urushi ketayotgan Turkiston uchun ham aslo begona emas edi. To‘plamda Turkistondagi holat tasvirlangan “Buzilgan o‘lkaga” bilan Turkiya voqealari aks etgan “To‘fon” she’ri o‘rtasiga joylashtirilgani, bizningcha, “Yong‘in” she’rining ikkisiga ham birdek taalluqli ekanini ta’kidlovchi qo‘shimcha vositadir. Zero, Turkiyadagi holatlar tasvirlangani holda, she’rning lirik qahramoni ham olisdagi, ham ko‘zi ko‘rib turgan yurtidagi ahvol haqida o‘ylayotgan, ularga g‘oyaviy-hissiy munosabatini ifodalayotgan uyg‘oq insondir. Cho‘lpon turklar bilan turkistonliklarning qismatdoshligini ko‘rsatarkan, yurtida ham Turkiyadagi kabi istiqlol uchun faol kurash bo‘lishi, “Mo‘minlarning oq vijdoni, imoni” toshib ketishiyu pirovardida “To‘fon” she’rida tasvirlangan kabi zafar bayram qilinishiga umid qiladi, o‘quvchisi shuurida ham shu umidni uchqunlantirishga intiladi. Ko‘rib turganimizdek, bu holda she’r o‘zini dunyoga keltirgan ijtimoiy-tarixiy kontekstdan uzilib, boshqa kontekstga tatbiq etiladiki, bu badiiy obrazga xos xususiyatdir. Shu jihatdan qaralsa, “Yong‘in” she’riy yo‘ldagi publitsistik asar emas, balki publitsistik ruhdagi badiiy asar sifatida qabul qilinishi mumkin. Zero, unda *badiiylik publitsistiklikka qaraganda ustuvorroq*dirki, she’rni “Buloqlar” to‘plamiga kiritganida Cho‘lpon shuni e’tiborga olgan bo‘lsa, ehtimol.

Cho‘lponning “O‘pkalash” she’ri ham Turk-Yunon urushi bilan bog‘liq bo‘lib, “Yong‘in”dan farqli o‘laroq, u *she’riy yo‘lda yozilgan publitsistik asarlar* sirasiga kiradi, shu bois ham Cho‘lpon uni to‘plamlariga kiritgan emas. She’r epigrafi, “Yong‘in”dagi epigrafdan farq etib, gap nima haqida ekanligiga aniq ishora beradi: “*Yunon gazetalari, Yunoniston va Turkiyaga bir ko‘z bilan qaramaganlari uchun muttafiqlardan o‘pkalab yozadilar*”. (Radio xabari) Ma’lum bo‘ladiki, she’r radio orqali berilgan ma’lumotga munosabat o‘laroq yozilgan. Gazeta she’rni “Kichkina hangama” rukni ostida e’lon qilgani bejiz emas, she’r o‘tkir kinoya ruhida yozilgan:

Yunonlilar Anato‘li tuprog‘ida yurganda,
Unlar uchun muttafiqlar “juda yaxshi” edilar.
Endi kelib “kamolchi”lar lunjlariga urganda,
“Yaxshilar”ning ko‘nglidagi yomonlikni bildilar.

“Do‘st” deganning yaxshisi bor, yomoni bor jahonda,
Foydalidir do‘st tutganda af’olini saralash;
Essizlarkim, bu haqiqat kech bilingan Yunonda,
Yo‘qsa, sira bo‘lmas edi bu kungiday O‘PKALASH!.. [7]

“Turkiston” gazetasining 1922-yil 14-oktyabr sonida e’lon qilingan ushbu she’r o‘quvchisi turk-yunon urushining borishi va u bilan bog‘liq siyosiy jarayonlardan yaxshi xabardor bo‘lgan. Ya’ni u Cho‘lpon “muttafiqlar” deganida urushni keltirib chiqargan va undan chin manfaatdor bo‘lgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va AQShni nazarda tutayotganini bilgan. Shuningdek, gazetxon yaqindagina yuz bergan voqealar – sentyabr oyida turk istiqlolchi qo‘shinlarining g‘olibona yurishlari oqibatida yunonlar Izmirdan quvib chiqarilgani, Istanbulni egallab turgan ittifoqchilar esa urushga jur’at qilolmay, istiqlolchilar uchun foydali kelishuvga majbur bo‘lganlarini yaxshi biladi. Yana Cho‘lpon ham, dunyo voqealaridan xabardor gazetxon ham Yunonistonni Turkiyaga qarshi olkishlagan “muttafiqlar” uchun yunonlar shunchaki bir vosita ekanligini teran anglaydi. Shundayligi sabab urushda qo‘li baland kelib Anato‘lini egallab turganlarida – ya’ni o‘zlari uchun manfaatli bo‘lgan vaqtda – muttafiqlar ularga yon bosgan, “o‘ng ko‘z bilan” qaragan. Endi, yunonlar engilib, o‘zlari ham Istanbulni tashlab chiqishga majbur bo‘lib turganlarida, tabiiyki, munosabat ham o‘zgaradi. O‘z navbatida, katta to‘rtlik davlatlarini o‘zining ittifoqchisi deb bilgan yunonlar buni xiyonat deb tushunadi. Holbuki, katta to‘rtlik Yunonistonni hech vaqt ittifoqchi bilmagan, unga jon dushmani bo‘lmish Turkiyaga qarshi qurol deb qaragan, xolos. Shuning uchun ham Cho‘lpon “do‘st tutganda af’olini saralash” kerak deya nasihat qiladi, zero, shunday qilganida, Yunoniston o‘zgalar qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanib, ming-minglab insonlarning o‘limiga sababchi bo‘lgan urushni boshlamagan bo‘lardi, hozirgidek behuda o‘pkalab ham yurmasdi. Cho‘lpon qardosh Turkiya qozonib turgan muvaffaqiyatga quvonadi, mudhish maqsadiga etolmagan “muttafiqlar” ustidan istehzo bilan kinoya qiladi – bular uning publitsist sifatida dunyo sahnasida sodir bo‘lgan va bo‘layotgan voqealarga munosabati, faol grajdanlik pozitsiyasi. O‘rni kelganda Cho‘lpon publitsistikasida – oddiy xabaridan to tahliliy maqolalarigacha, xoh oshkora va xoh “yo‘lini qilib” bo‘lsin – shaxsiy munosabatni ifodalashga intilish borligini ta’kidlash kerak. Fikrimizcha, ayni shu nuqtada shoir va publitsist, lirika va publitsistika uyg‘unlashadi – Cho‘lpon she’riyati va publitsistikasiga xos eng muhim jihatlardan biri namoyon bo‘ladi. Muhimi, gazetani muttasil kuzatib boruvchi xos o‘quvchi Cho‘lponning yetkazilayotgan xabarga munosabatini aniq belgilaydi, shu asosda uning nima demoqchiligini teran anglaydi. Ya’ni biz ko‘rib chiqayotgan holatda muallif kinoyasini osongina tushuna oladi, biroq hozirgi o‘quvchiga yuqoridagicha ma’lumotlar berilishi zarur, aks holda u she’rning mazmuni va ruhini tushunolmay qoladi.

Tabiiyki, o‘zlariga qolsa muttafiqlar – ayniqsa, ularning peshvosi bo‘lgan Buyuk Britaniya – o‘zlari egallab turgan hududni, xususan, Istanbulni qo‘ldan chiqarishni aslo istamas edi. Zero, Istanbul ular uchun shunchaki jug‘rofiy hudud emas, balki tarixdagi mag‘lubiyat uchun olinajak o‘ch, usmoniylar imperiyasi mahv etilganining ramzi ham edi, xullas, uning qo‘ldan berilishi jahon urushidagi g‘alabalariga soya solardi go‘yo. Biroq Izmirdagi muvaffaqiyatlaridan ruhlangan turk istiqlolchi qo‘shinlarining Istanbul tomon yurishi Buyuk Britaniya hukumatini Mudaniya sulhini qabul qilishga, keyin esa Turkiya masalasi bo‘yicha xalqaro konferensiya chaqirishga majbur etdi. Tarixga Lozanna konferensiyasi nomi bilan kirgan ushbu voqea Turkiston matbuotida ham ancha keng yoritib borilgan. Jumladan, Cho‘lponning shu voqeaga bag‘ishlangan publitsistik maqolalari va she’rlari bor. Shulardan “Turkiston” gazetasining 1922-yil 1-dekabr sonida e’lon qilingan “Istiqlol” she’ridir. O‘sha davrda Buyuk Britaniya bosh vaziri bo‘lgan Jorj Kerzonning “Turkiyaga biz istiqlol beramiz” degan gapi epigraf qilib olingan she’r mana bu misralar bilan boshlanadi:

Kirzo‘n to‘ra istiqlolni tarqatadur bemalol,
Shuning uchun bilmoq kerak:
u qandog‘i istiqlol! [8]

Cho‘lpon – “haq olinur, berilmas” degan ishonchda yashagan odamlardan biri, davr si-

yosiy voqeligida bu aqidaning haqligiga ishonchi yanada kuchaygan o‘quvchilari – gazetxonlarning “Istiqlol tarqatayotgan Kirzo‘n to‘ra”ni bir tasvir – siyosiy karikatura o‘laroq qabul qilishlariga ishonadi. Darhaqiqat, epigraf bilan she’r boshlanmasi ayni shunday, achchiq istehzo, kinoya o‘laroq qabul qilinishi lozim. Kinoya esa, yaxshi ma’lumki, faqat kontekstdagina voqelanadi, faqat kontekstda anglanadi. Ya’ni she’r yozilgan davr o‘quvchisi kontekstning ichida va kontekst uning ichida bo‘lsa, bugungi o‘quvchi undan mutlaqo uzilgan, bu hol uning uchun ijtimoiy-tarixiy sharhni zaruratga aylantirib qo‘yadi. Zero, busiz, masalan, keyingi misralar aynan ham tushunilaverishi mumkin:

U shundoq bir istiqlolkim, Turkiyaga berilmish,
Uni olgan Turkiyani ko‘ramizkim, hur bo‘lmish: [8]

Holbuki, bu o‘rinda kinoyaning o‘ziga xos bir turi – holat mantiqiga zid mazmundagi fikrni ifodalash deya ta’riflanuvchi *antifrazis* usulidan foydalanilgan. Ya’ni keltirilgan parchadagi “Turkiya hur bo‘lmish” jumlasi mutlaqo ters ma’noda, “Turkiya hur bo‘lmadi, bil’aks qul bo‘ldi” ma’nosida tushunilishi lozim. Zero, she’r davomida ayni fikr izchil asoslab boriladi, jumladan, mana bunday:

Poytaxti Istanbulga to‘lib olgan angiliz,
Turk xalqidan u yerlarda na bir asar, na bir iz.
Sultonini qurchoq qilib o‘lturg‘izib qo‘yganlar,
Qanotini sindirganlar, patlarini yulganlar... [8]

Cho‘lpon “poytaxtga ingliz to‘lib olgani”ni bejiz urg‘ulab aytayotgani yo‘q. Avvalo, she’r yozilgan vaqtda Istanbul inglizlar qo‘l ostida edi, lekin gap shundagina emas. Jorj Kerzonning mana bu fikriga diqqat qilinsa, bu satrlar mazmuni yanada yorqinroq anglashiladi: *“Istanbulda turklarning borligi Yevropa uchun muammo va intrigalar manbai bo‘lib qoldi. Ularni butunlay Anatoliyaga uloqtirishga erishsak edi, hammamiz Yevropa atmosferasi qandaydir nokerak havodan forig‘ bo‘layotganini his qilardik”* [11]. Ko‘rib turganimizdek, Kerzonning (umuman G‘arb fotihlarining) Istanbuldan turklarni butkul siqib chiqarish niyatini ochiq-oshkor aytib turibdi. Sultonning “qurchoq” qilinganiga kelsak, darhaqiqat, bu vaqtda Mehmet VI hokimiyatdan butkul mosuvo, davlat ishlariga mutlaqo ta’siri yo‘q (“qanoti sindirilgan, patlari yulingan”) ahvolda edi. Inglizlarning sultonni “har ehtimolga qarshi” saqlab turganlari shundan ham bilinadiki, istiqlolchilar qo‘li baland kela boshlashi bilan, inglizlar muzokaralarni ular bilan olib borishadi – yuzaga kelgan siyosiy vaziyatda sulton kerak bo‘lmadi, mabodo boshqacha vaziyat yuzaga kelganida, sulton bilan muzokara olib borilardi – hayron bo‘ladigan joyi yo‘q, bu – siyosat, xolos.

Albatta, “Yong‘in” she’rida ko‘rganimiz kabi, “Istiqlol” she’ri ham Turkiston voqeligi bilan bog‘lanadi, satr oralarida shoirni o‘z yurtida qiynab turgan dardlar ham aks etgan. Shunga qaramay, bunda detallashtirish, konkretlashtirish (Istanbul, yunon, Anato‘li) holatlari ko‘pligidan, aniq ijtimoiy-tarixiy voqelikka bog‘lanish kuchli, shu jihati bilan “Yong‘in”dan farq etaroq, u she’riy yo‘lda yozilgan publitsistik asardir. Cho‘lpon G‘arb davlatlari olib borayotgan munofiqona siyosat mohiyatini ochishga, ularning Sharq o‘lkalaridagi kirdikorlari, sharq xalqlariga asl munosabatini fosh etarkan, yurtdoshlarini siyosiy hushyorlikka, ko‘zlarini katta ochishga da’vat qiladiki, shu ma’noda she’rning publitsistik ruhi yanada kuchayadi.

Cho‘lpon she’riy va publitsistik ijodida Sharq mavzusining keng ishlangan, asarlarida G‘arb mustamlakachilari “qora bulut”, “och bo‘rilar”, “qarg‘alar” va boshqa “o‘laksaxo‘r” qushlar timsolida namoyon bo‘lgan. Bular shoir mustamlakachilarga o‘xshatish asosida – metaforik yo‘lda nisbat bergan obrazlardir. Shu bilan birga, Cho‘lpon bir qator she’r va publitsistik maqolalarida G‘arb mustamlakachilarini metonimik asosda – “madaniyat” deb ham atagan. Jumladan, “Istiqlol” she’rida Istanbuldagi turklar ahvoli haqida “Boshlarida o‘ynab turar “madaniyat” tayog‘i” deganida “sivilizatsiyali olam” – G‘arbni nazarda tutadi. Cho‘lponning bu so‘zni qo‘llagandagi kinoyasi g‘arb odamining o‘zini asl madaniyat egasi deb sanashi, madaniyatini ilg‘or va mutaraqqiy deb bilgan holda o‘zga madaniyatlarni kamsitishi yoki butkul inkor qilishi, eng avval iqtisodiy manfaat ko‘zlovchi olamni bosib olishga harakatini “madaniyat yoyish” shiori bilan xaspo‘shlashi... kabi hollar bilan izohlanadi. Shuning uchun ham bu so‘z qo‘llangan o‘rinlarda og‘ringan milliy g‘urur o‘rtanishi, nafrat va isyon kayfiyati bo‘rtib turadi. Fotih G‘arbning mazlum Sharqqa asl

munosabatini Cho‘lpon yuqoridagi she’rlar bilan bitta mavzuviy guruhni tashkil qiluvchi “Luzon” she’rida yaqqol ko‘rsatadi.

Avvalo, she’r Sharq – G‘arb ziddiyati va shunga munosabatni ifodalash uchun optimal shaklda: birinchi va ikkinchi bandlar qarshilantirilib, uchinchisida hukm chiqariladi, ya’ni mavzu an’anaviy “tezis – antitezis – sintez” kompozitsion qolipida rivojlantiriladi. O‘n ikki misralik birinchi bandda Marmara bo‘ylarida qo‘zg‘alib, “Vizanta devorlari”ni silkitayotgan “osiy bo‘ron” ta’riflanadi:

Qullikka isyon qilgan botir qo‘shun,
Miltiqlar, to‘plar bilan o‘ynar o‘yun...
Qo‘shunning orqasida isyonchi xalq,
Arslonday bo‘kirmoqda: “O‘lim yo haq!” [9]

“Lo‘zon” she’ri “Turkiston” gazetasining 1922 yil 16 dekabrida chop qilingani e’tiborga olinsa, yuqoridagi satrlar turk milliy ozodlik harakati eng kuchaygan 1922-yilning sentyabr–oktyabr oylaridagi holatni aks ettirayotgani ma’lum bo‘ladi. Cho‘lpon tasviridagi isyon shiddati biroz mubolag‘ali ko‘rinishi mumkin. Biroq isyon shiddatini ko‘rgan va xalq bilan qo‘shin birligini tuygan inglizlar Lozanna konferensiyasini chaqirishga majbur bo‘lgani eslansa, mubolag‘a emas – shunchaki haqiqat quyuqlashtirib ifodalangan deganimiz to‘g‘riroq bo‘ladi. Davr o‘quvchisi, ayniqsa, Cho‘lpon kabi turk qardoshlarga xayrixohligi sabab voqealarni muttasil kuzatib borayotgan xos o‘quvchi buni juda yaxshi bilgan. Bugungi o‘quvchining buni his qilishi uchun esa unga 1922-yil oktyabr–noyabr oylarida Turk-Yunon urushi qanday borgani, bu bilan bog‘liq siyosiy voqealar haqida ma’lumot berish zarur bo‘ladi. Aytilganidek, Lozanna konferensiyasi majburiyat orqasida, turk qo‘shinlarining g‘olibona yurishlari natijasida chaqirilgan. Tabiiyki, otdan tushsa-da egardan tushmaydigan G‘arb sulhni imkon qadar o‘z foydasiga aylantirishga, Sevr sulhidagi (1920) Turkiya uchun og‘ir shartlarni imkon qadar saqlashga harakat qiladi. Cho‘lpon istiqlol yo‘lida “O‘lim yo haq!” deya qo‘zg‘algan xalqning taqdirini hal qilish uchun uzoq Lozannada to‘plangan “madaniyat” vakillarining asl maqsadlari, turk xalqiga, umuman mazlum Sharq xalqlariga munosabatini ikkinchi bandda g‘oyat aniq ifoda etadi:

Suv ichra... go‘zal Luzon... go‘zal saroy...
Muhtasham imoratlar... ziynatlik joy...
Tramvay... o‘t-aroba... uchar otlar...
Baronlar... xo‘jayinlar... ulug‘ zotlar...
Talablar... maslahatlar... gaplar-so‘zlar...
Asabiy yuzlar bilan qonxo‘r ko‘zlar...
“Sharqlik ham odammidi?” – degan qarash,
Maqsadlar, vazifalar – Sharqni talash...
Aytalar: “Sharqlik uchun faqat kishan”,
Kishanning natijasi: qonsiz kafan... [9]

E’tibor bering: bandning dastlabki to‘rt misrasida “madaniyat”ning farovon, hashamatli va go‘yo ulug‘vor hayoti tasvirlanadi. Ayni shu fonda “Asabiy yuzlar bilan qonxo‘r ko‘zlar”ning aks ettirilishi avvalgi misralar mazmun-mohiyatini oydinlashtiradi: bir yoqdan, bu hashamat va farovonlik o‘zgalar qoni, ko‘z yoshi evaziga kelganini; ikkinchi tomondan, shu ulug‘vorlik bag‘ridagi “baronlar... xo‘jayinlar... ulug‘ zotlar” paytavasiga qurt tushib qolganini anglatadi. Qanday ham asabiylashmasinlar, axir, birinchi bandda tasvirlangan isyon ruhi asrlar davomidagi ulug‘vor xotirjamlikka raxna solayotgan bo‘lsa?! Shu bois ko‘zlariga qon to‘lgan, o‘ljasiga daxl qilingan yirtqich kabi ahvoli. Va bu yirtqich uchun sharqlik odam emas – shunchaki bir o‘lja, uning nafsi uchun yaralgan maxluq. Ikkita bandni bir-biriga zidlagach, Cho‘lpon ikki misralik uchinchi band – yakunda g‘oyat teran falsafiy xulosa yasaydi:

Tursa butun Sharqda osiy bo‘ron,
Kishanni qalinlatar Luzon – muzon!.. [9]

Mazlum Sharq ozodlik uchun endi-endi oyoqqa tura boshlagan bir vaqtda Cho‘lpon “madaniyat” kishanni qalinlatish payida bo‘lishini ta’kidlamoqda. Darhaqiqat shunday emasmi, “yirtqich – o‘lja” qolipidagi munosabatlar to hanuz davom qilmayaptimi? So‘ng zamonlarda Iroq, Liviya, Suriya kabi yurtlarda yuz bergan hodisotlar Cho‘lpon istehzo-la “madaniyat” deb atagan kuchning yirtqich tabiati hanuz o‘zgarmaganini ko‘rsatmaydimi?!

Yuqorida Cho‘lponning bitta tarixiy voqea – 1919–1922-yillarda sodir bo‘lgan Turkiya-Yunoniston urushi bilan bog‘liq she’rlarini anglash uchun davr tarixiy voqeligi haqida ma’lumotga ega bo‘lish nechog‘li muhim ekanini ko‘rib o‘tdik. Tabiiyki, buni misol uchungina tanlab

oldik, haqiqatda XX asr davomida yaratilgan asarlarning aksariyat ko‘pchiligini tushunishda ularni voqelantirgan ijtimoiy-tarixiy sharoit haqidagi bilim g‘oyat muhimdir. Zero, XX asr – shaxs faol ijtimoiylashgan davr, bas, davr shoiri ham, she’riyati ham aslo istisno emas. Demak, o‘quvchini yaqin o‘tmish adabiyotiga yaqinlashtirishning muhim shartlaridan biri asarlardagi davr ijtimoiy-tarixiy sharoiti bilan bog‘liq o‘rinlarni sharhlash ekan. To‘g‘ri, katta avlod vakillari – hozirda nafaqa yoshiga kelib qolganlarda bunday sharhga ko‘p ham zarurat yo‘qdek ko‘rinadi. Lekin bu aldoqchi tasavvur, chunki ularning tushunishi umumiy kontekstda, xolos, konkretlashmagan, sodda qilib aytganda, chala bo‘ladi. Yosh avlod esa sharhsiz ko‘pincha tushunishdan mutlaqo ojiz qoladi. Sababi, hozirda yaqin o‘tmishimiz ijtimoiy-tarixiy voqeligi haqidagi bilimlar tobora sayozlashib, bo‘shliq hosil bo‘layotgani yaqqol sezilmoqda. Bu bo‘shliqni to‘ldirish adabiyotimiz namunalarining qabul qilinishidagi vorisiylikni ta’minlash, taraqqiyot halqalaridan biri uzilib qolmasligi uchun zaruratdir.

Adabiyotlar:

1. *Алиева С.И.* Национально-освободительное движение турецкого народа против французской оккупации Мараша в советской историографии // Современная научная мысль, 2020. – № 3. – С. 64–77.

2. Ismail Ediz. Bati Anadolu’da yunan işgali (1919–1922). Doktora tezi. Istanbul, 2011.

3. *Товсултанов Р.А., Товсултанова М.Ш., Галимова Л.Н.* Греко-турецкая война 1919–1922 гг.: становление новой Турции и крах идеи Великой Греции // Самарский научный вестник, 2022. – Т. 11. – № 2. – С. 195–199.

4. Қуронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.

5. Чўлпон. Булоқлар. – Тошкент: Туркистон жумҳуриятининг давлат нашриёти, 1923.

6. Чўлпон. Тўфон // Туркистон. 1922 йил 13 сентябрь.

7. Қаландар. Ўпкалаш // Туркистон. 1922 йил 14 октябрь.

8. Қаландар. Истиқлол // Туркистон. 1922 йил 1 декабрь.

9. Чўлпон. Лузон // Туркистон. 1922 йил 16 декабрь.

10. Сулаймон А. Яна қон шарпаси // Туркистон.-1923.– 7 апрель

11. 100 лет назад распалась Османская империя. Кто создал независимую Турцию и как западные страны пытались этому помешать? [Электронный ресурс]. URL: https://lenta.ru/articles/2023/07/24/lausanne_treaty (Дата обращения: 2023.30.07).

ON THE IMPORTANCE OF SOCIO-HISTORICAL CONTEXT IN UNDERSTANDING CHULPAN’S POEMS

Dilmurod H. Kuronov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 68-75.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: socio-historical reality, commentary, Turkish-Greek War, Turkish fighters for independence, Anatolia, Lausanne.

Socialization is one of the important and characteristic features of the new Uzbek literature, which begins with Jadid literature. Since that period, the connection of the poem with social reality became extremely intense. Poets began to attach greater importance to the knowledge of the outside world, to reflect feelings and thoughts that arise directly under its influence. With the development of the press in Turkestan, poems shrouded in journalistic pathos began to be created, dedicated to topical issues of our time, as well as samples of journalism in verse. Chulpan is a poet who “prescribed” a social person as a lyrical hero of Uzbek poetry and turned “social pain” into a full–fledged subject of lyrical experience.

In many of his poems, an ideological and emotional attitude to the events taking place in society is expressed, acute social problems of that time are raised. This feature of Chulpon's poetry is highlighted by the example of the analysis of poems written in connection with the Grech-Turkish war, such as "Yo'ng'in" ("Fire"), "Upkalash" ("Lamentation"), "Istiklol" ("Independence"), "To'fon" ("Storm").

It is proved that the socio-historical context is crucial in understanding the essence of the poem "Fire". Only in the context does it become clear that the reality depicted in the poem and which gave impetus to the poet's experiences are the events of the Greco-Turkish war. To make sure of this, it is necessary to turn to the socio-historical context and the context of Chulpan's work. The quoted word "culture", which is given at the end of the poem, is a kind of hint.

Here we must proceed from the fact that the word "madaniyat" ("civilization") is called "civilized Europe", this is how the poet sarcastically expresses his attitude – his hatred of the conquerors of the East, bringing, as they themselves like to assert, civilization to savages. So, we are talking about the bloody actions of Europe, which are described in the poem. However, in 1921, when the poem was written, Europe did not directly commit such deeds in our country, so the events in the poem are not related to Turkestan. If we recall the course of the Greco-Turkish war, the massacre staged by Greek troops in early 1921, it becomes clear that this is exactly what we are talking about. Based on the analysis of "Fire" and other poems listed above, it is concluded that in order to understand such poems, one should take into account the social reality that prompted their creation.

The modern Chulpan reader knew perfectly well what the poet was writing about and what he wanted to say, that is, he had the opportunity to ponder his thoughts and experience his feelings. Today's reader, who does not know the context, is deprived of such an opportunity. This situation means that socio-historical commentary is of crucial importance for the modern reader and makes it necessary to provide publications of Chulpan's works with socio-historical commentary.

References:

1. Alieva, S.I. (2020) Nacional'no-osvoboditel'noe dvizhenie tureckogo naroda protiv francuzskoj okkupacii Marasha v sovetskoj istoriografii [National liberation movement of the Turkish people against the French occupation of Marash in Soviet historiography]. *Sovremennaya nauchnaya mysl'*. No 3. Pp 64-77.

2. Ismail Ediz. (2011) Bati Anadolu'da yunan işgali (1919-1922). [Greek occupation in Western Anatolia. (1919-1922)]. Doktora tezi. Istanbul.

3. Tovsultanov, R.A., Tovsultanova, M.Sh., Galimova, L.N.(2022) Greko-tureckaya vojna 1919–1922 gg.: stanovlenie novoj Turcii i krah idei Velikoj Grecii [Greco-Turkish War 1919–1922: the formation of a new Turkey and the collapse of the idea of Greater Greece]. *Samarskij nauchnyj vestnik*. Vol. 11. No 2. Pp. 195-199.

4. Kuronov, D. (1997) Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi [Shepherd's life and creative heritage].Tashkent: O'qituvchi.

5. Cho'lpon. (1923) Buloqlar [Springs].Tashkent: Turkistan jumhuriyatining davlat nashriyoti.

6. Cho'lpon. (1922) To'fon [Flood]. Turkistan. September 13.

7. Qalandar. (1922) O'pkalash [Pulmonary]. Turkistan. October 14.

8. Qalandar. (1922) Istiqlol [Independence].Turkistan. December 1.

9. Cho'lpon. (1922) Luzon [Luzon].Turkistan. December 16.

10. 100 let nazad raspalas' Osmanskaya imperiya. Kto sozdal nezavisimuyu Turciyu i kak zapadnye strany pytalis' etomu pomeshat'? [100 years ago the Ottoman Empire collapsed. Who created an independent Turkey and how did Western countries try to prevent it?]. [Online]. URL: https://lenta.ru/articles/2023/07/24/lausanne_treaty (Date of Access: 2023.30.07).

Muallif haqida ma'lumot:

QURONOV Dilmurod Haydaraliyevich – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: kuronov@rambler.ru